

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vaziri



Sh.Shermatov

Sh. Shermatov 2021-yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZINING**

NIZOM

Toshkent – 2021

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI to‘g‘risidagi
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazining (keyingi o‘rinlarda – Markaz) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalarini, huquqlarini, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Markaz o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) bo‘ysunadi va unga hisobot beradi.

3. Markaz davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachiligida byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga ega bo‘ladi.

4. Markaz yuridik shaxs hisoblanadi, o‘zining alohida mulkiga, mustaqil balansiga, banklarda hisob-kitob va valyuta hisobraqamlariga, o‘zining nomi yozilgan dumaloq muhrga, firma blankalariga va shtampiga ega bo‘ladi.

5. Markaz o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlikning buyruq va qarorlariga, shuningdek ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

6. Markaz o‘z faoliyatini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

7. Markazning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq – Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi, qisqartirilgan nomi – RTM;

b) rus tilida:

to‘liq – Республиканский центр образования при Министерстве народного образования, qisqartirilgan nomi – РЦО;

v) ingliz tilida:

to‘liq – Republican Center for Education under the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekiston, qisqartirilgan nomi – RCE under the Mope of Uz.

8. Markaz 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy manzilida joylashgan.

2-bob. Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari

9. Markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti, tayanch va variativ o'quv rejalari hamda dasturlarini ishlab chiqish;

Vazirlik buyurtmasiga asosan tuzuvchilarni tanlash hamda darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarning yagona maketlarini yaratish;

yaratilgan darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni ekspertizadan o'tkazish, ularni ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha xulosa berish;

o'quv rejasi, dasturlari, yaratilgan darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni tajriba-sinovdan o'tkazish ishlariga rahbarlik qilish;

fanlarni o'qitish metodikasi va o'quvchilar bilimlarini baholashning zamonaviy uslublarini ishlab chiqish, shuningdek, ta'lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish va bu boradagi ijobiy tajribani umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ommalashtirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarni, ayniqsa, birinchi bosqichda matematika, informatika, kimyo, biologiya va o'zbek tili (*ona tili va davlat tili sifatida*) fanlari uchun o'quv-metodik ta'minotni yaxshilash hamda darsliklarning sifatli tayyorlanishini ta'minlash;

o'quv-tarbiya jarayoniga "STEAM" fanlarini (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san'at, Mathematics — matematika) o'qitish bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalar va boshqa maqbul metodikalarni joriy etish;

Vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan baholash mezonlari (KPI) asosida tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari fan metodistlari faoliyatining samaradorligini tahlil qilish va ularning reytingini shakllantirish.

10. Markazning funksiyalari quyidagilardan iborat:

Vazirlik buyurtmasiga asosan darslik va o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish uchun tuzuvchilarni tanlov asosida tanlash hamda darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarning yagona maketlarini yaratish ishlariga boshchilik qiladi hamda bu borada tuzuvchilar bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuzadi;

yaratilgan darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar taqrizchilariga zarur shart-sharoitlar yaratib berish;

o'z vakolatlari doirasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan xalq ta'limi tizimida metodik yordam ko'rsatishni rivojlantirish, istiqbolli va dolzarb

muammolarni tahlili bo'yicha Vazirlikka takliflar kiritish;

ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda raqamli ta'lim resurslarini rivojlantirishni keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashadi;

umumiy o'rta ta'limning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinovlar olib borish, o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta'minlash masalalarida hududiy xalq ta'limi tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etishga yo'naltirilgan o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish bo'yicha fundamental, amaliy va ilmiy tadqiqotlar loyihalarini amalga oshirish;

o'qitishning interaktiv va zamonaviy usullarini, metodik materiallarni, pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda oshirish bo'yicha metodik yordamning samarali shakllarini ishlab chiqish, tajriba-sinovdan o'tkazish, takomillashtirish shuningdek, o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish choralarini ko'rish;

zamonaviy ta'lim muhitini yaratish asosida o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlar dizaynini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha eksperimentlar o'tkazish, vazirlikka xulosa va takliflar kiritish;

darslik va o'quv metodik-majmualar, didaktik va ta'lim resurslarini tahlil qilish, ekspertizadan o'tkazish, bazasini yaratish, boyitib borish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishda metodik yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

o'quvchilarga qo'yiladigan malaka talablari, o'quv reja, dasturlarni, o'quv-metodik materiallarni tizimli tahlil qilish, Markaz ilmiy-metodik kengashlariga taklif kiritish;

maxsus ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat talablarini ishlab chiqish hamda ular asosida didaktik materiallarni ishlab chiqishni rivojlantirish;

umumiy o'rta ta'limga rivojlangan davlatlarning tajribalari asosida inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha izlanishlar olib borish;

umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish bo'yicha tayyorlangan ilmiy-metodik ishlanmalar va doktorlik dissertatsiyalarining amaliyotga tatbiq etilganligi to'g'risida xulosalar berish;

umumiy o'rta ta'lim sifat mazmunini va metodik xizmatini yaxshilash maqsadida Markazga biriktirilgan tayanch maktab faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

xalq ta'limi sohasida shuningdek, uning istiqbolli yo'nalishlarida xalqaro va chet el tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ta'lim muhitini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar, grantlarni jalb qilishda ishtirok etish;

Markaz vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan materiallar tayyorlash hamda xalq ta'limi sohasini rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro, mintaqaviy uchrashuvlar, anjumanlar va seminarlarda ishtirok etish.

3-bob. Markazning huquqlari va majburiyatlari

11. Markaz quyidagi huquqlarga ega:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari va xalq ta'limi muassasalariga metodik ko'rsatmalar berish;

Markaz faoliyatiga tegishli masalalar yuzasidan takliflarni Vazirlik Hay'atiga kiritish;

ta'lim sifatini oshirish maqsadida yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan, xorijiy mutaxassislar, ekspertlar va xorijda yashaydigan vatandoshlar bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalarni imzolash va ular mehnatiga o'rnatilgan tartibda haq to'lash;

ta'lim sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning faoliyat yo'nalishlari doirasida Respublika ta'lim markazi huzurida ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish;

qo'shimcha o'quv-metodik mahsulotlarni yaratish, nashr etish, o'rnatilgan tartibda sotish;

xalqaro ta'lim platformalarida mavjud bo'lgan elektron resurslarni, shu jumladan, umumiy o'rta ta'lim mussasalarining pedagog kadrlari uchun o'quv-metodik resurslar, maktab yoshidagi bolalarga mo'ljallangan videodarslar, ta'lim bilan bog'liq o'yinlar va boshqa mahsulotlarni mahalliyashtirish yo'nalishiga shartnoma asosida pulli va bepul xizmatlar ko'rsatish;

o'z vakolatiga tegishli masalalarda o'quv qo'llanma, metodik ishlanmalar, nazorat materiallarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish;

nodavlat umumiy o'rta ta'lim mussasalari tomonidan tavsiya etilgan o'quv rejasi va dasturlari, darsliklar hamda o'quv-metodik resurslarni amaliyotda qo'llash yuzasidan ilmiy xulosalar berish;

yuqori mehnat ko'rsatkichlariga erishgan Markaz xodimlarini davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash uchun Vazirlikka takliflar kiritish;

Markaz qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

12. Markaz quyidagi majburiyatlarga ega:

o'z Nizomida nazarda tutilgan vazifalarni ijro etish;

ish jarayonini o'rnatilgan tartibda sanitariya-gigiena normalariga va xavfsizlik qoidalariga muvofiq tashkil etish;

Markazning moddiy-texnik ta'minotini asrab-avaylash.

Markaz qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Markaz faoliyatini tashkil etish

13. Markaz o'z faoliyatida bevosita Vazirlikka bo'ysunadi va hisobot beradi.

14. Markazga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan direktor boshchilik qiladi.

15. Markaz direktorining O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri tomonidan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan direktor o'rinbosarlari bo'ladi.

16. Quyidagilar Markaz direktorining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

Markaz faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi va Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi yuzasidan shaxsan javob beradi;

Markaz xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

o'z o'rinbosarlari, bo'lim boshliqlari va boshqa xodimlarining vakolatlarini belgilash, ular o'rtasida majburiyatlarni taqsimlaydi;

Markaz vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

Markaz faoliyatining joriy va istiqbol rejalarini tuzilishini tashkil etadi;

Markaz xodimlarini rag'batlantiradi hamda ularni davlat mukofotlari, faxriy unvonlar, faxriy yorliqlar berilishiga tavsiya etadi;

Markaz xodimlarini zarur hollarda intizomiy javobgarlikka tortadi;

qonunchilikda belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy shaxslar va tashkilotlar bilan shartnoma va bitimlar tuzadi;

belgilangan tartibda Markaz mulki va mablag'larini tasarruf etadi;

olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik ishlarni muvofiqlashtiradi;

ichki tartib qoidalarni tasdiqlaydi va uning xodimlar tomonidan bajarilishini nazorat qiladi;

jamoada ichida sog'lom ma'naviy va ijodiy muhitni shakllantirish choralari ko'radi;

markazda xodimlarning sanitariya-gigienik, mehnatni muhofaza qilish qoidalari, texnik va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

Markaz direktori qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

17. Markazda direktor bo'lmagan davrda uning vakolatlarini vazifa taqsimotlariga ko'ra uning o'rinbosarlari bajaradi.

18. Umumiy o'rta ta'lim tizimi va Markaz faoliyatiga oid masalalarini ko'rib chiqish uchun Markazda yo'nalishlar bo'yicha Ilmiy- metodik kengashlar tashkil etiladi.

Ilmiy-metodik kengashlar tarkibi, Nizomi va ish rejasi Markaz direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Ilmiy-metodik kengashlar tarkibiga salohiyatli olimlar, amaliyotchi pedagog va metodistlar, markaz xodimlari, shuningdek, turli sohalarning yetakchi mutaxassislari, jamoat tashkilotlar vakillari kirishi mumkin.

Ilmiy-metodik kengashlar qarorlari kengash yig'ilishi bayonnomalari orqali rasmiylashtiriladi va amalga oshiriladi.

Ilmiy-metodik kengash raisi va kotibi kengash qarorlari bajarilishining muntazam ravishda monitoringini olib boradi va qabul qilingan qarorlar ijrosi to'g'risida kengash a'zolariga hisobot beradi.

Ilmiy-metodik kengashlar a'zolari kengash majlisida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlar to'g'ri va aniq bajarilishi uchun javob beradi.

Ilmiy-metodik kengashlarning ish tartibi Markazning yillik ish rejasiga muvofiq tashkil etiladi.

Ilmiy-metodik kengashlar a'zolari mehnatiga haq to'lash, ularni rag'batlantirish Markazning takliflari asosida huquqiy-me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan tartib asosida amalga oshirilishi mumkin.

19. Quyidagilar Ilmiy-metodik kengashlarning vazifalari hisoblanadi:

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, o'quv-tarbiya jarayoni va o'qitish metodikasi va boshqa masalalarga oid takliflarni muhokama qilish;

ilmiy-metodikalar va tashkiliy ishlar yo'nalishlarini belgilash, ilmiy-metodik faoliyatni muvofiqlashtirish va tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarini takomillashtirish;

ta'lim menejmenti va o'qitish metodikasi bo'yicha Markazning doktorantlar va mustaqil ilmiy izlanuvchilar bilan ilmiy-metodik faoliyatni amalga oshirish;

Markazni rivojlantirishning joriy (yillik) va istiqbolli rejalarini ishlab chiqishda takliflar berish.

5-bob. Markaz faoliyatini moliyalashtirish

20. Markaz faoliyati quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;

Markazning byudjetdan tashqari mablag'lari, shu jumladan vaqtincha bo'sh turgan byudjetdan tashqari mablag'larni tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan tushgan mablag'lar;

shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;

grantlar, xizmat ko'rsatishdan tushgan daromadlar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'limi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 26-fevraldagi 108-sonli qaroriga muvofiq:

Markaz direktorining mehnatiga haq to'lash shartlariga ko'ra bazaviy lavozim maosh miqdorlari oliy ta'lim mussasasi rektoriga, direktorning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari oliy ta'lim mussasasi prorektoriga;

Markaz tarkibiy bo'linma boshliqlari oliy ta'lim mussasasining fakultet dekaniga, metodistlarning ish haqi miqdori oliy toifali o'qituvchining bazaviy tarif stavkasi miqdoriga tenglashtirilgan holda mehnatga haq to'lash shartlari asosida amalga oshiriladi.

22. Markaz xodimlariga o'rindoshlik va soatbay haq to'lash asosida haftada bir ish kuni hajmida asosiy faoliyatiga ta'sir qilmagan va ish haqi saqlangan holda qo'shimcha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish uchun ruxsat etiladi.

6-bob. Yakuniy qoida

23. Markazni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Respublika ta'lim markazi
direktori

